

The Dardanelles ota pilgrimage is located in the village of Esaboy in Koson district. It is known from history that Khoja Bahouddin Naqshband, the founder of Naqshbandi sect, was born in 1318 in the village of Qasri Hinduwon near Bukhara. According to tradition, Bahuddin Naqshband visited the Nasaf area in 1334-1335 to visit the Holy steps in search of science. Bahauddin Qusam studied under Sheikh Hazrat. It is known that Bahauddin wrote in a side note in his Kez, where his grandfather taught lessons in the presence of Qusam Shaikh: "about half a mile (23 km) from the qusam SHAIKH We had a khilwatgah from the kunchikar side". The sanctuary now corresponds to the Shrine of the Blessed Father. It turns out that in those times there was a large garden on the site of the shrine. The elderly living in this village say that in the presence of Qusam Shaykh Khaja Bahawuddin's Highness, Poshshakhol ota, Sultan Mirhaidar ota, Muradbakhsh ota, hazrati Kokota and Nurota Saints jointly exchanged views from the science of tariqat, among them were pained. It turns out that at the time of the conversations in this place, many caromats were served. It turns out that visiting the "brave father" is equivalent to visiting Seven Saints. It is believed that in the years of repression, the books and manuscripts of many of our allomas were buried in the place where there is a symbolic tomb in this place. The mausoleum is rectangular, domed, and the porch of Aldi, carrying two pillars. The shrine area was renovated in 2003. [3]

In conclusion, it can be said that today these shrines in the Koson district are visited by local residents mainly for religious-pilgrimage tourism purposes. In the coming years, the improvement of tourism infrastructure, reconstruction of tourist facilities, development of various tourist attractions in order to develop pilgrimage tourism by local authorities will serve as an important factor for the development of domestic tourism. This leads not only to the popularization of the district's pilgrimage tourism centers on a local as well as regional and Republican scale, but also to an increase in income in the tourism and service sectors.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni//www.lex.uz
2. Убатов У. "Буюк алломалар" Тошкент. Ўзбекистон нашриёти. 2016 й
3. Qurbonov P.R., Safarov I.B, "Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmi" monografiya - Qarshi. 2022
4. Safarov I.B. "Geographical features of pilgrimage tourism (in the case of Kashkadarya region)" "Экономика и социум" №2(105) 2023 с/321-324
5. Асқаров А. "Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи". Тошкент. Ўзбекистон нашриёти. 2016 йил
6. Кудратов Т. Тела номлари-тарих даракчилари. Тошкент. 1989 й

KORXONADA SOLIQLARNI REJALASHTIRISHNING AHAMIYATI VA YO'LLARI

Nao‘betova Ziyada Niyet qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,
Soliqlar va soliqqa tortish yo‘nalishi yo‘nalishi
1-bosqich magistratura talabasi.
E-mail: ziyada.acca@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada soliqlarni rejalashtirish korxona moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini rivojlantirishning bir omili sifatida ahamiyati ko‘rib chiqilgan va solishtirma misollar asosida soliqlarni rejalashtirishga bo‘lgan zarurat tahlil qilingan. Mavzu yuzasidan, xorijiy va mahalliy olimlarning soliq rejalashtiruvni haqidagi qarashlari o‘rganilgan hamda ilmiy xulosa va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: soliqlarni rejalashtirish, soliq xarajatlari, soliqdan qochish, aylanmadan olinadigan soliq, foyda solig‘i, dividend, qo‘shilgan qiymat solig‘i, soliq majburiyati.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается значение налогового планирования как фактора развития финансово-хозяйственной деятельности предприятия и анализируется необходимость налогового планирования на основе сравнительных примеров. По теме были изучены взгляды зарубежных и отечественных ученых на налоговое планирование, сформулированы научные выводы и рекомендации.

Ключевые слова: налоговое планирование, налоговые расходы, уклонение от уплаты налогов, налог с оборота, налог на прибыль, дивиденды, налог на добавленную стоимость, налоговые обязательства.

ABSTRACT

The article considers the importance of tax planning as a factor of development of financial and economic activity of an enterprise, using comparative examples the necessity of tax planning is analyzed. The views of foreign and domestic scientists on tax planning are studied, scientific conclusions and recommendations on the given theme are formulated.

Keywords: tax planning, tax expenses, tax evasion, turnover tax, income tax, dividends, value added tax, tax liabilities.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti davrida xo‘jalik yurutuvchi subyektlar o‘zlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini strategik rejelashtirishi ularning raqobat bozorida barqaror tura olishiga zamin yaratadi. Har bir biznes o‘z moliyasini rejelashtirishning asosiy maqsadi bo‘lib, korxona sof foydasini va aylanma mablag‘larining hajmini imkon qadar oshirish va kutilayotgan xarajatlarni minimallashtirish orqali tashkilotning keyingi rivojlanishiga real imkoniyatlarni ochish hisoblanadi.

Ba’zi hollarda, korxona soliq yukining asossiz ravishda oshib ketishiga sabab sifatida korxona o‘z soliq xarajatlarini boshqara olmasligi va noto‘g‘ri rejelashtirishning oqibati ko‘rsatiladi. Buning natijasida, ayrim korxonalar soliq xarajatlarini kamaytirish uchun qisman yoki to‘la yashirin iqtisodiyotga o‘tishning yo‘llarini izlashadi. Bu masala yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-martdagи “Jahon banki ishtirokidagi “Soliq ma’muriyatchiligini isloh qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan “Yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirish uchun soliq to‘silqlarini bartaraf etish” [1] loyihasi yo‘lga qo‘ylgan. Bu qaror ijrosi sifatida, tadbirkorlarga soliq rejelashtiruvining ahamiyatini va uning soliq xarajatlarini qisqartirishdagi ijobjiy ta’sirini tushuntirish tadqiqot mavzusining asosiy maqsadi va vazifasiga kiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Soliqlarni rejelashtirish insoniyat tarixida soliq tushunchasi yuzaga kelgan davrlardan beri mayjud va buni E.S. Vilkova va M.B. Romanovskiy o‘z ilmiy qarashlarida 3 ta davrga bo‘lib o‘rganishadi va uni quyidagi 1-jadvalda ko‘rshimiz mumkin.

1-jadval.

Soliqlarning va soliq rejelashtiruvining davriyligi [2].

Davr	Soliq rejelashtirilishining iqtisodiyot nazariyasidagi ifodasi	Soliq to‘lovchi tomonidan soliq rejelashtiruvining amaliyotda qo‘llanishi
1. Qadimgi dunyo. O‘rta asrlardan XVII asrgacha (dastlabki soliq elementlarining paydo bo‘lishi)	Soliqqa tortishning ilmiy nazariyasi yo‘q.	Soliqlarni rejelashtirish tizimsiz, yakka xarakterga ega. Yuqori martabali shaxslargina qo‘llay oladi.
2. XVII asr oxiri - XIX asr	Soliqqa tortish masalasida ilmiy nazariyalar shakllana boshlagan, ammo soliqlarni rejelashtirish haqida ma’lumot hali mavjud emas.	Jismoniy shaxslar tomonidan soliqlarni rejelashtirish qo‘llanib kelmoqda, korxonalar miqyosida endi boshlanish arafasida.
XX asr boshidan hozirgi kungacha	Soliq rejelashtirushi nazariyasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.	Xo‘jalik yurutuvchi subyektlar tomonidan oliq rejelashtiruvining qo‘llanilishi.

Quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, garchi soliq rejalashtiruvni soliq munosabatlari yuzaga kelgan o‘rta asrlarda paydo bo‘lgan bo‘lsa ham uning hech qanaqa nazariy asosi bo‘lmagan va insonlar tomonidan intuitiv tarzda amalga oshirilgan. Nazariya sifatida esa, XX asrdan fanga kiritilgan.

Bundan tashqari, soliqlarni rejalashtirish masalasida hozirgi zamon xorij iqtisodchi olimlari turli ta’riflar berib o‘tishgan. Xususan, iqtisodiyot fanlari nomzodi O.V. Belynskaya o‘z ilmiy ishlarida “Soliqni rejalashtirish-bu murakkab tashkiliy-iqtisodiy mexanizm bo‘lib, uning tarkibiy elementlari nafaqat iqtisodiy asoslashni va buxgalteriya hisobini (hujjatlar, yozuvlar va boshqalar), balkim xo‘jalik yurituvchi subyektning umumiyy strategik rejalashtirish doirasida soliq to‘lovlarini minimallashtirish uchun amaldagi qonun hujjatlaridan qonunchilikni buzmasdan foydalana olishi hisoblanadi”[3].

Yana bir maqbul ta’rifni T.G. Sheshukova va I.S. Lobanov ilmiy ishlarida “Zamonaviy sharoitda soliqni rejalashtirish bu faqat soliq to‘lovchining soliq to‘lovlarini optimallashtirish usuli bo‘lishnigina to‘xtatadi. Bu biznesning ajralmas qismiga, moliyaviy va boshqaruv faoliyatining turiga aylanadi. Soliqni rejalashtirish bugungi kunda nafaqat soliq to‘lovlarini optimallashtirishga va minnimallashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak, balkim korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim”[4] degan fikrlar bilan bo‘lishgan.

K.O. Karlamov o‘z ilmiy ishida soliqlarni rejalashtirish yuzasida quyidagi fikrlarni aytib o‘tganlar “Bizning fikrimizcha, soliqni rejalashtirish va prognoz qilishni xo‘jalik yurituvchi subyekt darajasida soliq ko‘rsatkichlarini doimiy ravishda sozlash uchun moslashuvchan axborot muhitini shakllantirishning yagona jarayoni deb hisoblashimiz kerak. Soliqni rejalashtirish asoslari nafaqat xo‘jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya siyosatining mavjud elementlarini, balki qonunda belgilangan barcha soliq imtiyozlaridan to‘g‘ri va to‘liq foydalanishni, shuningdek soliq to‘lovlarini kechiktirish va to‘lash imkoniyatlarini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi[5].

Tadqiqot mavzusi yuzasidan mahalliy olimlarimizning fikrlarini o‘rganadigan bo‘lsak, xususan S.A. Giyasov “Soliq rejalashtirish – bu real iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda, soliq tushumlarining iqtisodiy asoslangan prognozlar tizimidir. Soliq rejalashtirishning asosiy vazifasi amaldagi soliq qonunchiligi asosida mamlakat ijtimoiy iqtisodiy dasturlarining sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarini ta’minlashdan iboratdir” [6].

D.Shaulovning nazariy qarashlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, “Soliqlarni samarali rejalashtirish soliq xarajatlarini optimallashtirish, korxonaning foydasini oshirish hamda ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish bo‘yicha moliyaviy salohiyatini kengaytirish imkonini beradi, bu esa oxir-oqibat soliq solinadigan bazalarning ortishiga va byudjetga to‘lanadigan soliqlar summasining oshishiga olib keladi”[7].

Xorij va mahalliy olimlarimizning fikrlarini inobatga olgan holda, shunday xulosa qilishimiz mumkinki, soliqlarni rejalashtirish - bu korxona sof foydasini oshirish uchun soliq xarajatlarini optimallashtirishga va qonunchilikdagi mavjud imtiyozlardan foydalangan holda soliq yukini qonuniy ravishda yengillashtirishga qaratilgan hattiharakatlar majmui deb ifodalasak bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida bir qancha iqtisodiy tahlil metodlaridan, xususan mantiqiy abstraksiyalash, iqtisodiy analiz va sintez, monografik tadqiqot, ma’lumotlarni to‘plash va guruhash, iqtisodiy qiyoslash, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir tadbirkor o‘z faoliyati darajasida soliqlarini rejalashtirishda quyidagi prinsiplarga asoslanadi [2]:

- Hisoblangan soliqning minimal miqdorini to‘lash;
- Soliq majburiyatini to‘lashning eng oxirgi kunigacha qoldirish;
- Qonun doirasida belgilangan soliq imtiyozlaridan maksimal ravishda foydalanish;
- Maxsus buxgalteriya hisoblash usullari orqali soliq solish bazasini kamaytirishga harakat qilish.

Soliqlarni rejalashtirish hozirgi kunda biznes moliyaviy menejmentining instrumentlaridan biri bo‘lib, har bir biznes egasi uni o‘z faoliyatida qonuniy, va noqonuniy tarzda qo‘llashi mumkin.

Qonuniy ravishda soliqlarni rejalashtirish biznes egasi tomonidan faoliyatini boshlash nuqtasida soliq majburiyati yuzaga kelmasdan oldin paydo bo‘ladi va bunga boshlamoqchi bo‘lgan biznes faoliyatini qaysi hududda soliq organida hisobdan o‘tish, soliq to‘lovchining faoliyatini soliqlar va huquqiy aspektlari jihatdan optimal tashkiliy tuzulmada ochish va to‘g‘ri soliq rejimini tanlashdan boshlanadi. So‘zimizning isboti sifatida, potensial tadbirkor o‘z faoliyatini startup tarzida boshlamoqchi bo‘lsa, Toshkent shahridagi MCHJ “Inno texnopark” rezidenti sifatida ushbu texnopark hududida o‘z faoliyatini boshlashi, unga prezidentimizning “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 2022-yil 1-avgustdan 2028 yil 1-yanvargacha barcha soliqlarni (ijtimoiy soliqdan tashqari) to‘lashdan ozod etish huquqini beradi [8]. Bundan tashqari, 2022-yil 31-avgustdaggi prezidentimizning PF-213 sonli qaroriga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘z faoliyatini olib boruvchi tadbirkorlik subyektlari 2023-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvargacha foya solig‘i, aylanmadan soliq, yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i, yuridik shaxslarning yer solig‘ini 2 baravar pasaytirilgan stavkada, ijtimoiy soliqni esa 1 foiz miqdorda to‘lashi mumkin. Garchi bu imtiyozlar hududlar kesimida vaqtinchalik

davrga berilgan bo‘lsa ham, endigina faoliyatini yuritmoqchi bo‘lgan biznes egasiga ma’lum vaqt davomida soliq xarajatlarini minimallashtirishga va tejalgan pul mablag‘larini faoliyatini kengaytirishga yo‘naltirishi mumkin.

Huquqiy nuqtai nazardan soliqlarni optimal rejalashtirishda bo‘lajak korxonaning faoliyati va molivayiy strategiyasiga ko‘ra, to‘g‘ri tashkiliy shaklda ochish va soliq rejimlarini to‘g‘ri tanlay olish ham soliq yukini kamaytirishda katta ahamiyatga ega. Misol tariqasida, korxonaning realizatsiya qilayotgan mahsulotiga qo‘yayotgan marjasni 18 foizgacha bo‘lgan miqdorda bo‘lsa korxona umumbelgilangan soliq tizimida foyda solig‘i va QQS to‘lovchisi sifatida faoliyat yuritishi unga soliq summasi aylanmadan olinadigan soliq rejimidan ko‘ra kamroq miqdorda hisoblanishi imkonini beradi, 18 foizdan yuqori marjada esa aylanmadan olinadigan soliq rejimiga o‘tish iqtisodiy jihatdan soliqlarni kamroq hisoblanishiga asos bo‘la oladi deb hisoblasak bo‘ladi. Taxminimizning isboti sifatida quyidagi masalani ko‘rib chiqishimiz mumkin. Masala shartiga ko‘ra tadbirkor tannarxi 100 000 so‘mlik bo‘lgan tovarlarni sotib oldi va uning barchasini realizatsiya qildi. 12% stavkada hisoblangan tovarlarning jami QQS summasi 12 000 so‘mga teng. Foyda solig‘i stavkasi - 15%.

2-jadval.

1-vaziyat: Korxona QQS va foyda solig‘i to‘lovchisi

Marja, %	Sotish narxi, so‘m	Hisoblangan QQS, so‘m	Foyda, so‘m	To‘lanadigan QQS, so‘m	Foyda solig‘i, so‘m	Jami soliqlar, so‘m
15	115000	13800	15000	1800	2250	4050
19	119000	14280	19000	2280	2850	5130
30	130000	15600	30000	3600	4500	8100

Manba: Jadval muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

2-holatda korxona maxsus soliq rejimida 4% miqdorda AOS tizimidan foydalanadi. Bu tizimda garchi korxona mahsulotni QQS bilan sotib olsa ham uni hisobga olish va hisoblash huquqiga ega emas. Demak, mahsulot tannarxini 112 000 so‘m sifatida kirim qilinadi.

3-jadval.

2-vaziyat: Korxona aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchisi

Sotish narxi, so‘m	Aylanmadan soliq miqdori, so‘m
115000	4600
119000	4760
130000	5200

Manba: Jadval muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

Yuqoridagi 2-va 3-jadvallarni tahlil qiladigan bo‘lsak, korxona uchun 17-18% marja asosida tovarlarini realizatsiya qilgan paytda, QQS va foyda solig‘ini to‘lovchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tgani maqbul. Agarda marja 18% dan oshadigan taqdirda maxsus soliq tizimida aylanmadan soliq to‘lashi iqtisodiy tomonlama soliq xarajatlarini kamaytirish imkonini berar ekan. Agarda yuqoridagi ikkita vaziyatni, soliq xarajatlarini kamaytirishni asosiy maqsad qilib emas, balkim ko‘proq sof foydaga erishish nuqtai nazaridan qarasak foyda solig‘i to‘lovchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tish tadbirkor uchun har tomonlama samarali bo‘lishi mumkin deb taxmin qilsak bo‘ladi va buni tasdig‘i sifatida yuqoridagi masala shartidan foydalanib sof foydani ikkala soliq rejimida aniqlashga harakat qilamiz.

4-jadval.

Yuqoridagi 1-vaziyat asosida korxona sof foydasini aniqlash.

(Barcha ko‘rsatkichlar so‘m hisobida)

Mahsulot tannarxi	Sotishdan tushum (QQS b-n)	Foyda	To‘lanadigan QQS solig‘i xarajati	Foyda solig‘i	Sof foyda
100000	128800	15000	1800	2250	12750
100000	133280	19000	2280	2850	16150
100000	145600	30000	3600	4500	25500

Manba: Jadval muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

5-jadval.

Yuqoridagi 2-vaziyat asosida korxona sof foydasini aniqlash.

Sotib olish narxi	Sotish narxi	Foyda	AOS xarajati	Sof foyda
112000	115000	3000	4600	-1600
112000	119000	7000	4760	2240
112000	130000	18000	5200	12800

Manba: Jadval muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

4-va 5-jadvallar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, garchi korxonaning soliq rejallashtiruvda soliq xarajatlarini minimallashtirishga qaratilgan har qanday usul ham korxona moliyaviy holatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin. Shuning uchun korxona o‘z soliqlarini rejallashtirish jarayonida korxona erishishi mumkin bo‘lgan sof foyda miqdoridan kelib chiqgan holda o‘ziga qulay soliq tizimini tanlashi lozim.

Bundan tashqari yana bir misol orqali soliqlarni samarali rejallashtirish biznes egasi uchun o‘z mablag‘larini iqtisod etish imkoniyatini berishi mumkinligini ko‘rib chiqamiz. Korxona direktori va biznes egasi bitta shaxs bo‘lgan paytda, korxonadan pul mablag‘larini shaxsiy ehtiyoj sifatida olib chiqib ketishda 2ta yo‘l mavjud.

Birinchisi, direktor sifatida mehnatga haq to‘lash xarajati sifatida pul mukofotini yozish orqali yoki biznes egasi sifatida dividend tarzida ham olish mumkin. Bu ikkita holatning qaysi biri iqtisodiy jihatdan optimal yechim bo‘la olishini quyidagicha hisoblab topamiz.

1-holat: Direktor sifatida ish haqi sifatida pullarni yechish (pensiya fondiga hisob daromad solig‘i hisobidan olinganligi uchun uni hisob-kitoblarga ta’siri yo‘q deb faraz etamiz).

Korxona yalpi foydasi 100 000 000 so‘m

Direktorga pul mukofoti 80 000 000 so‘m

Jismoniy shaxs daromad solig‘i miqdor $80\ 000\ 000 * 12\% = 9\ 600\ 000$ so‘m

Korxona to‘laydigan Ijtimoiy soliq $80\ 000\ 000 * 12\% = 9\ 600\ 000$ so‘m

Direktor qo‘liga oladigan pul mablag‘lari 70 400 000 so‘m

Foya solig‘i $(100\ 000\ 000 - 80\ 000\ 000 - 9\ 600\ 000) * 15\% = 1\ 560\ 000$ so‘m

Taqsimlanmagan foya: 8 840 000 so‘m

Biznes egasi umumiy miqdorda 20 760 000 so‘m soliq xarajatini amalga oshirdi.

2-holat: Biznes egasi dividend ko‘rinishida pullarni yechib olganda.

Korxona yalpi foydasi 100 000 000 so‘m

Foya solig‘i $100\ 000\ 000 * 15\% = 15\ 000\ 000$ so‘m

Taqsimlanmagan foya $100\ 000\ 000 - 15\ 000\ 000 = 85\ 000\ 000$ so‘m

Dividend hisoblandi 80 000 000 so‘m

Dividend solig‘i $80\ 000\ 000 * 5\% = 4\ 000\ 000$ so‘m

Biznes egasi sifatida qo‘lga tegadigan pul mablag‘lari $80\ 000\ 000 - 4000\ 000 = 76\ 000\ 000$ so‘m

Korxonada qolgan sof foya $85\ 000\ 000 - 80\ 000\ 000 - 4000\ 000 = 1\ 000\ 000$ so‘m

Biznes egasi jami 19 000 000 so‘m soliq xarajatini amalga oshirdi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, garchi dividend ko‘rinishida pul mablag‘larini korxona hisobidan olib chiqishda soliq xarajatlari kamroq bo‘lsa ham, keyingi soliq davrida SK 317-moddasiga ko‘ra dividend xarajatlarini foya solig‘i bazasidan chegirib tashlay olmaslikni inobatga olgan holda, umumiy qaraganda biznes egasiga korxona direktori sifatida pul mab’lag‘larini mehnatga haq to‘lash tarzida olib chiqishi ko‘proq iqtisodiy naf keltiradi deb taxmin qilsak bo‘ladi.

Soliqlarni rejalashtirishda noqonuniy hatti harakatlarning sodir etilishini ko‘zda tutish-soliqlardan qochish sifatida qaraladi va bunga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenumining 2013-yil 31-maydagи “Soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo‘llanilishi” to‘g‘risidagi 8-sonli qarorining 6-moddasini bu hatti-harakatlarning tarkibi ko‘rsatilib berilgan [8]:

- Foydani (daromadni) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni (soliq bazasini) qasddan yashirish, kamaytirib ko'rsatish belgilari, jumladan, quyidagilar:

- tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum summasini hisobga olish registrlarida aks ettirmaslik;
- tovarlar (xizmatlar) realizatsiya qilinganligidan dalolat beruvchi hujjatlarni almashtirish, soxtalashtirish yoki yo'q qilish yoxud ularni tekshirish uchun taqdim etishni rad etish;
- qalbaki birlamchi buxgalteriya hujjatlaridan foydalanish;
- hisobda realizatsiya qilinmagan deb ko'rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi;
- rasmiylashtirilmagan (kirim qilinmagan) tovarlarni saqlash, ulardan foydalanish va realizatsiya qilish;
- nazorat-kassa texnikasining fiskal xotirasi xizmati dasturiga noqonuniy ravishda o'zgartirish kiritish;
- foydalanilmagan moddiy xarajatlarni foydalanilgan deb, ishlab chiqarish hisobotiga qo'shish;
- tovarlarni sotish (xizmat ko'rsatish)dan olingan tushumni hisobot davridan keyingi davrga o'tkazish (sotish hajmini va daromad (foyda)ni qasddan kamaytirish);
- moddiy, yoqilg'i-energetika resurslari xarajatlarini va amortizatsiya (eskirish) normasini sun'iy ravishda oshirish yoki normativ (limit)larni noto'g'ri qo'llash;
- ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan xodimlarning haqiqiy ish haqi summasi soliq hisobotida aks ettirilmaganligi;
- mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarning soliq hisobotida aks ettirilmaganligi;
- realizatsiya qilingan tovarlar qiymatini hisob hujjatlarida haqiqatda realizatsiya qilingan qiymatidan pasaytirilgan narxlar bo'yicha aks ettirish va h.k.

Ma'lumki, har bir biznesda soliqlarni rejalashtirishga qaratilgan hatti harakat ma'lum bir xarajatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, korxona o'z soliq xarajatlarini kamaytirish uchun yurist, buxgalter, soliq maslahatchisi, moliyaviy analitik kabi kadrlarni o'z shtatiga doimiy ravishda yollashiga yoki shartnoma asosida korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatini diagnostika qilishga ehtiyoj sezishi mumkin.

Bunda, soliqlarni optimallashtirishga va soliq xarajatlarini qisqartirishga ketgan resurslar soliqlarni iqtisod qilishdan olingan daromaddan katta bo'lmashligi lozim. Aks holda, korxona o'ziga boshqa operatsion xarajatlarini ko'paytirish bilan birga, soliq rejalashtiriuvining norentabelligiga erishadi. Demak, korxona qaysi nuqtaga kelib o'z soliqlarini rejalashtirishiga zarurat sezishini soliq yukining og'irligiga qarab quyidagicha hisoblanadi.

$$\text{SY}=\text{HS/RMH} \times 100\%$$

Bu yerda, **SY**-soliq yuki, **HS**-hisob davridagi hisoblangan soliqlar, **RMH**-realizatsiya qilingan mahsulot hajmi.

6-jadval.

Soliq yuki ko‘rsatkichi asosida korxona soliqlarini rejalashtirishga zarurat [9]

Soliq yuki	Soliqlarni rejalashtirish darajasi	Soliqlarni rejalashtirishga zarurat
10-15%	<ul style="list-style-type: none"> * buxgalteriya hisobi va ichki hujjat aylanmasining to‘g‘riligi, imtiyozlardan to‘g‘ri foydalana olish; * buxgalterlar salohiyati professional darajada; * vaziyatga qarab bir martalik soliq maslahatchilarining xizmatidan foydalanish; 	Minimum darajada
20-40%	<ul style="list-style-type: none"> * soliqni rejalashtirish umumiy moliyaviy boshqaruv va nazorat tizimining bir qismiga aylanadi, namunaviy, yirik va uzoq muddatli shartnomalarining shartnomalarini maxsus tayyorlash (rejalashtirish) * maxsus tayyorlangan xodimlarga talab va korxona moliyaviy direktori tominidan ularni boshqarish va nazorat etish * ixtisoslashgan kompaniyada doimiy xizmatni yollash 	Zarur, muntazam tadbirlar
45-60%	<ul style="list-style-type: none"> * juda ham muhim element, korxona strategik rejalashtiruvini barcha ichki va tashqa yo‘nalishlar bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish * maxsus o‘qitilgan xodimlarning mavjudligi va barcha xizmatlar bilan direktorlar kengashi a’zosining tashkiloti va nazorati bilan yaqin hamkorlikni tashkil etish talab etiladi * tashqi soliq maslahatchisi bilan doimiy ishlash va soliq bo‘yicha advokatning mavjudligi * maxsus rivojlanish dasturi, soliq maslahatchilarini tomonidan har qanday tashkiliy, huquqiy yoki moliyaviy tadbirlar va innovatsiyalarni majburiy soliq tahlili va ekspertizasi o‘tkazilishi; 	Hayotiy zarurat, kundalik tadbirlar

Yuqorida jadvaldan shuni ko‘rish mumkinki, korxona o‘z faoliyatini amalga oshirishi mobaynida muntazam ravishda soliq yuki ko‘rsatgichini tahlil qilib borishi lozim va bu yuk 45% dan yuqori bo‘lgan taqdirda korxona soliqlarini rejalashtirishda muvaffaqiyatsizlikning kritik nuqtasiga yetayotganini va tez orada butun moliyaviy holatga javobgar ma’muriyat hodimlarining kompetensiyasini qayta baholashni ko‘rib chiqish tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotning globallashuvi, biznes uchun milliy chegaralarning erkinligi, global integratsiya jarayonida yirik koronalarda soliq yukini rejalashtirilishi xalqaro darajada amalga oshirilayotgani hech kimga sir emas. O‘zbekiston Respublikasida soliq tizimida jadal yuz berayotgan reformalar soliq to‘lovchilarga bir vaqtning o‘zida turli imtiyozlar va imkonyatlar ochayotgan bo‘lsa, boshqa tomonidan egiluvchan moslashuvchanlikni talab etmoqda. Xo‘jalik yurituvchi subyektning soliq rejalashtiruviga nisbatan quyidagi xulosalarga keldik.

Birinchidan, soliqlarni rejalashtirish har bir korxona bo'yicha individual xarakterga ega va uning sxemasi korxonaning faoliyati, moliyaviy holati va strategik rejasiga bog'liq holda amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, biznesda soliq xarajatlarini boshqarish moliyaviy menejmentning bir qismi hisoblanadi va a'lo darajada tuzilgan soliq rejalashtiruvni biznes uchun qo'shimcha aylanma mablag'larni jalb etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, korxonaning soliq yukini aniqlash orqali, biznesdagi soliq rejalashtiruvining optimal tuzulganligini yoki unga bo'lgan zaruratni ko'rish mumkin.

Soliq rejalashtiruvini samarali tashkil topishi soliq yukining pastligi bilan ifodalansa quyidagi takliflar orqali soliq to'lovchi tadbirkor to'lanishi lozim bo'lgan soliqlarini ko'rib chiqishi mumkin.

Birinchidan, buxgalteriya hisobi va hisob siyosatini qaytadan ko'rib chiqishi orqali soliq yukuni kamaytirishi mumkin. Masalan, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i korxonaning balansidagi bino va inshoatlarning qoldiq qiyamtidan hiobga olinadi. Demak, buxgalteriya yuritishda tezlashtirilgan amortizatsiya hisoblash yo'li orqali bino va inshoatlarning qoldiq qiymatini kamroq ko'rsatish va shu orqali mol-mulk solig'ini kamroq hisoblash imkoniyatiga erishish mumkin.

Ikkinchidan, qaytarib olinishi dargumon deb o'ylab topilgan qarzlarni boshqa operatsion xarajat sifatida chiqarib yuborilgan taqdirda ham hisobini alohida olib borish orqali SK 313 moddasiga ko'ra umidsiz qarz deb e'tirof etilgan paytida bu xarajatni foyda solig'ini hisoblashda chegirib tashlash huquqini beradi va bu ham soliq xarajatlarini kamaytirishga asos bo'la oladi.

Uchinchidan, kichik firmalarga o'z faoliyati yuzasidan yurist, buxgalter, xodimlar bilan ishlash bo'yicha bo'limga zarurat bo'lsa ham, firma ish hajmi katta emasligi bu kabi kadrlarni doimiy shtatga olishi qo'shimcha ish haqi va soliq xarajatlarini yuzaga keltiradi. Bunday holda, optimal yechim sifatida autsorsing konsultantlariga murojat etish iqtisodiy tomonlama o'zini oqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-martdagи PQ-178-sonli qarori.<https://lex.uz/uz/docs/-5921306>
2. Вылкова Е.С., Романовский М.В. Налоговое планирование. – СПб., Питер, 2004. с. – 112.
3. Белянская О.В. Налоговое планирование на предприятии: Теоретико-методологический аспект. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 2000 год.
4. Шешукова Т.Г, Лобанов И.С. Анализ видов деятельности предприятия и выбор оптимальной налоговой политики с целью максимизации прибыли на примере лесопромышленного комплекса. <https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-vidov-deyatelnosti-predpriyatiya-i-vybor-optimalnoy-nalogovoy-politiki-s-tselyu-maksimizatsii-pribyli-na-primere>
5. Харlamov К.О. Использование инструментов налогового анализа и планирования в целях повышения налоговой дисциплины экономического субъекта. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 2015 год
6. Гиясов С.А. Иқтисодиётни инновацион ривожлантиришда солиқ механизмидан самарали фойдаланиш. Илм-фан ва инновацион ривожланиш / 2020 № 4. б.-70.
7. Shaulov D. Korxonani boshqarishda soliqlarni rejalashtirishning roli. <https://mineconomy.uz/uz/info/1083>
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenumining 8 sonli qarori, 31.05.2013. https://www.norma.uz/uz/deyatelnost_otdelyh_otrasley/o_primeneii_sudami_zakon_odatelstva_ob_otvetstvennosti_za_uklonenie_ot_uplaty_nalogov_i_drugih_obyazatelnih_platejey
- 9.<https://vl-legal.uz/ru/publikatsii/21-publikatsii/obzor-i-analitika/326-nalogovoe-planirovaniye-v-predpriyatiu-v-usloviyah-nalogovoj-reformy-v-respublike-uzbekistan>